


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 3, Issue 8 **2025**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 8 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 8

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 8



TOHKENT-2025

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»  
№8 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-8>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Galiyeva Margarita Rafaellovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Samandarova Lola Sultanovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Goncharov Yuriy Mixaylovich**

Tarix fanlari doktori, professor  
Altay davlat universiteti Rossiya

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent  
Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),  
dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Urganch davlat universiteti

**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch pedagogika instituti

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Grodno davlat universiteti Belorusiya

## **IQTISODIYOT FANLARI**

### **Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

### **Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## **PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Slepko Yuriy Nikolayevich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

### **Xazova Svetlana Abduraxmanovna**

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma  
davlat universiteti Belorusiya

### **Kalandarova Madina Baxadirovna**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## **TIBBIYOT FANLARI**

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sul-tonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Nazarova Maloxat Berdiboyevna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

## **ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**

### **Sultanov Samandar Maxmud o'g'li**

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

<b>1. Safarova Svetlana Satimovna</b> XIVA XONLIGINING G‘ARBIY SIBIR HUDUDI BILAN MADANIY ALOQALARI TARIXI.....	7
<b>2. Машарипова Садокат Абдуллажоновна</b> ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ АМИРА ТИМУРА ПО КНИГЕ Т. ВАСИЛЬЧЕНКО “ЭМИР ТИМУР. ИСТОРИЯ, ЛИЧНОСТЬ, ВРЕМЯ”.....	14
<b>3. Raufjon Mahmudov, Sultonova Jayrona</b> O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING LEKSIK QATLAMLARI VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI.....	19
<b>4. Шухрат Эркинович Худайбергенов</b> ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ КЛАССИЧЕСКИХ КИНОКОМЕДИЙ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ РАКУРСЕ.....	26
<b>5. Bobir Maxammadov</b> MIKROSOFT WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING MAXSUS LUG‘ATLARDA BERILISHI.....	32
<b>6. Raufjon Mahmudov, R.Allaberganova</b> O‘ZBEK TILIDAGI TARIXIY ANTROPONIMLAR.....	37
<b>7. Abdullayeva Shaxnoza</b> TERMINOLOGIYA VA ONTOLOGIYA MUNOSABATLARI.....	43
<b>8. Raufjon Mahmudov, Nilufar Zaripova</b> ABU RAYHON BERUNIYNING “OSOR UL-BOQIYA” ASARI VA TILSHUNOSLIK AN‘ANALARI.....	54
<b>9. Rasulqulova Sitara Shodmonjonovna</b> O‘G‘UZ LAHJASINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA BILINGVIZM JARAYONLARI..	59
<b>10. Raufjon Mahmudov, Dilfuza Ruzmatova</b> JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING XORAZM MADANIY HAYOTIDAGI O‘RNI.....	64
<b>11. Sherzod Atajanov</b> UMUMERONIY TILLAR BILAN BOG‘LIQ ANTROPONIMIK TIZIM.....	72
<b>12. Safarova Svetlana Satimovna</b> XV – XVI ASRLARDA XORAZM VOHASINING QUYI VOLGABO‘YI HUDUDLARI BILAN ALOQALARI.....	77
<b>13. Вазира Муродова</b> “ОИЛА” КОНЦЕПТИНИНГ КОГНИТИВ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	83
<b>14. Вазира Муродова</b> “ОИЛА” КОНЦЕПТИНИНГ ЭТИМОЛОГИК – СЕМАНТИК ТАМОЙИЛЛАРИ.....	89


## TARIX

- 15. Matqurbonov Omonbek Odilbekovich, Jumanazarova Sadoqat Zafarbek qizi**  
KARVON YO'LI BO'YLAB HARAKAT QILGAN XORAZM SAVDOGARLARINING  
SHARQIY YEVROPA VA KAVKAZDAGI FAOLIYATI.....99
- 16. Ismailov Bobur Baxramovich**  
XIVA XONLIGIDA SO'NGGI O'RTA ASRLARDA METALSOZLIK XOM-ASHYO  
MANBALARI VA TASHQI SAVDO ALOQALARI TARIXI.....103
- 17. Palvanova Tuxtajon Palvanovna**  
XORAZMDA TEATR SAN'TINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI.....108

TARIX

**Matqurbonov Omonbek Odilbekovich-**  
Ma'mun universiteti "Tarix" kafedrası dotsenti,  
**Jumanazarova Sadoqat Zafarbek qizi-**  
Urganch Innovatsion universiteti Tarix yo'nalishi magistranti

## KARVON YO'LI BO'YLAB HARAKAT QILGAN XORAZM SAVDOGARLARINING SHARQIY YEVROPA VA KAVKAZDAGI FAOLIYATI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17154674>

### ANNOTATSIYA

Buyuk ipak yo'li ko'plab millat va elatlarni savdo-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jihatdan birlashtirgan ko'prik vazifasini bajarar ekan, ilk o'rta asrlar davrida xorazmlik savdogarlar ham bu savdo munosabatlaridan chetda qolmay faol ishtirokchilik qilgan. Bu ayniqsa, Karvon yo'lining Shimoliy tarmog'i yuzaga kelishi bilan yanada faollashgan. Buning eng asosiy sababi bu tarmoqning Xorazm shaharlari orqali o'tishida edi. Bu omil shaharlar savdo-munosabatlari rivojiga ham katta hissa qo'shgan.

**Kalit so'zlari.** Shimoliy tarmoq, xorazmiy yozuvli kumush va sopol idishlar, xoalitlar, Xazaron, dirham.

---

### Матқурбонов Омонбек Одилбекович-

Доцент кафедры истории Университета Маъмуна,

Джуманазарова Садокат Зафарбек кызы-

Магистрант исторического факультета Ургенчского инновационного университета

## ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ХОРЕЗМИЙСКИХ ТОРГОВЦЕВ, ПУТЕШЕСТВОВАВШИХ ПО КАРАВАННОМУ ПУТИ В ВОСТОЧНУЮ ЕВРОПУ И НА КАВКАЗ

### АННОТАЦИЯ

Великий Шёлковый путь служил мостом, объединявшим многие страны и народы в торгово-экономическом и социально-политическом отношении, и в раннем средневековье хорезмийские купцы не были в стороне от этих торговых отношений и принимали в них активное участие. Это особенно активизировалось с возникновением северной ветви Караванного пути. Главной причиной этого было прохождение этой ветви через города Хорезма. Этот фактор также в значительной степени способствовал развитию торговых отношений между городами.

**Ключевые слова.** Северная ветвь, серебряные и керамические сосуды с хорезмийскими надписями, хаалиты, хазарцы, дирхемы.

**Matqurbonov Omonbek Odilbekovich-**  
Associate Professor of the Department of History of Mamun University,  
**Jumanazarova Sadokat Zafarbek qizi-**  
Master's student, History Department, Urgench Innovation University  
<https://orcid.org/0000-0001-9024-7987>  
E-mail: omonbekmatqurbonov93@gmail.com

## ACTIVITIES OF KHOREZM TRADERS TRAVELING ALONG THE CARAVAN ROUTE IN EASTERN EUROPE AND THE CAUCASUS

### ANNOTATION

The Great Silk Road served as a bridge that united many nations and peoples in trade, economy, and socio-political terms, and in the early Middle Ages, Khorezm merchants were not left out of these trade relations and actively participated in them. This was especially activated with the emergence of the Northern branch of the Caravan Road. The main reason for this was the passage of this branch through the cities of Khorezm. This factor also contributed greatly to the development of trade relations between the cities.

**Key words.** Northern branch, silver and ceramic vessels with Khorezmian inscriptions, khaalites, Khazarian, dirhams.

### KIRISH VA DOLZARBLIGI

IV asrdan to XI asrgacha bo'lgan davrda Volgabo'yi va Sharqiy Yevropa mamlakatlarini O'rta va Yaqin Sharq hududlari bilan bog'lovchi markaz vazifasini bajargan Xorazm, keyingi davrlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. 1937-1990 yillar mobaynida va mustaqilligimizning dastlabki davrlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida, Xorazmning Volgabo'yi, Sharqiy Yevropa va Sibir xalqlari bilan olib borgan savdo aloqalari to'g'risida juda katta miqdordagi dalillar, ma'lumotlar to'plandi. Ayni shu ma'lumotlarga tayangan holda, savdo aloqalarining ba'zi yo'nalishlari va xususiyatlari haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

### METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Miloddan avvalgi IV- II asrlarga oid yodgorliklar arxeologik ma'lumotlar bazasi Xorazmda ishlab chiqarilgan kulolchilik buyumlari, Janubiy Uralbo'yidan tortib to Boshqirdistongacha bo'lgan hududdagi miloddan avvalgi IV- II asrlarga oid yodgorliklarida uchraydi. Miloddan avvalgi II asrga oid Xorazm sopol buyumlarining Janubiy Uralbo'yidagi qo'rg'onlardan topilishi, milodiy VII-VIII asrlarga oid Xorazm tangalarining Boshqirdiston hududidan topilishi, III-VIII asrlarga tegishli Xorazm kumush tangalarining esa Kamabo'yi hududlaridan topib o'rganilishi Xorazm savdogarlarining savdo-munosabatlari tarixida tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Qozog'iston va Janubiy Uralbo'yi dasht va o'rmon-dasht hududlari orqali Xorazm hunarmandchilik buyumlari uzoq shimoli-sharqqa ham borib yetgan. Miloddan avvalgi III-II asrlarga tegishli xorazmiy yozuvli kumush va sopol idishlar Omsk hududidagi Irtish daryosi bo'ylaridan ham topilgan. Bu xorazmlik ustalar tomonidan tayyorlangan sopol buyumlar va tangalar hisoblanib, manzil va makon nuqtayi nazaridan Xorazmda tayyorlangan mahsulotlarga talabning qanchalik yuqori bo'lganligidan dalolat beradi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i vujudga kelishi bilan Xorazmning Volgabo'yi va Sharqiy Yevropa bilan savdo aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi. Chunki, shimoliy tarmoq Xorazm savdo shaharlari orqali o'tgan.

Mashhur yunon geografi Ptolomeyning "Geografiya" asarida ham bu yo'l to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lib, muallif Azov dengizidan boshlanib, Quyi Volgabo'yi dashtlari va Xorazm orqali janubi-Sharqqa tomon o'tuvchi yo'l to'g'risida ma'lumot bergan.[1]

Shimoliy tarmoq orqali olib borilgan savdo munosabatlari tarixiga doir manbalar tahlil qilinganda, Volgabo'yi va Sharqiy Yevropa xalqlari bilan bo'lgan savdo hajmi haqida muhim ma'lumotlar ko'zga tashlanadi. Shu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, Xorazmdan olib borilgan

va olib kelingan mahsulot turlari ham uzoq vaqt davomida o'zgarmagan degan fikrga kelish mumkin. Bitta misol: qul savdosi faqat o'rta asrlardagina emas, balki to Rossiya istilosigacha Xorazm iqtisodida katta rol o'ynagan. Bu holat, ayniqsa, qulchilik tizimi hukmronlik qilgan davrda Xorazmga ko'chmanchilar bilan bo'lgan savdoda keltirilgan qullar mehnatidan foydalanish, dehqonchilikning, hunarmandchilikning rivojlanishini ta'minlash uchun ham sharoit yaratgan va o'z navbatida savdo-sotiq rivojlangan.

Xorazmning Volgabo'yi va Sharqiy Yevropa bilan savdo faoliyati rivojiga Turk xoqonligining vujudga kelishi ham zamin yaratgan. Turklarning Vizantiya bilan savdoni rivojlantirishga intilishi, o'z navbatida, sosoniylar Eroni bilan munosabatlarning buzilishiga olib kelgan. Bu esa Buyuk ipak yo'lining Eron shaharlaridan o'tadigan qismidan Vizantiya bilan aloqalar olib borishning imkoni yo'qolishiga sabab bo'lib, savdogarlar Xorazm, Kaspiy dengizi shimoliy sohillari, Kavkaz tog'lari va Qora dengiz bo'ylari orqali Vizantiyaga borganlar. Bu munosabatlar tarixida Xorazmning o'rnini qanday bo'lganligini Menandrning turklar yurtiga yuborilgan vizantiyalik Zemarx boshchiligidagi elchiligi to'g'risidagi hikoyasidan bilishimiz mumkin.

Milodiy 569 yili g'arbiy turk xoqonining qarorgohida bo'lgan Vizantiya elchisi Zemarxning safari Xorazm (Menandr Xorazmni xoliatlar yoki xoaltilar yurti deb ataydi) orqali o'tgan. Xorazmliklarning turk xoqonligining savdo aloqalari tarixida katta rol o'ynaganligini Zemarx safari misolida ko'rishimiz mumkin. Xoqon faqat xoaltilar (xorazmliklar) hukmdorigagina o'z elchilarini Zemarx safariga qo'shib yuborishga ruxsat bergan.[2]

Kama bo'yidan topilgan VI-VIII asrlarga oid Xorazm idishlari Markaziy Osiyoni Volgabo'yi va Sharqiy Yevropa bilan bog'lovchi yo'lining shimoli-g'arbiy tarmog'ining ham mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

V-VIII asrlar davomida inqiroziy holatni boshidan kechirgan Xorazm, IX asrga kelib, yana iqtisodiy taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ydi.

Savdo shaharlarining o'sishi mamlakat umumiy iqtisodiy taraqqiyotining muhim tomonlaridan biri bo'lib, yangicha asosda yuksala boshlagan Xorazm sivilizatsiyasining atrofdagi dashtlar va uzoqroqdagi mamlakatlar bilan savdo aloqalari mustahkamlanayotganidan va yanada kengayayotganligidan dalolat beradi.

X asrga kelib esa Xorazmning iqtisodiy jihatdan nihoyatda faol bo'lganligi arab manbalarida yorqin tasvirlangan. Xorazmlik savdogarlar, xuddi qadimgi zamonlardagidek, birinchidan, hozirgi Qozog'iston o'rnidagi dashtlar, ikkinchidan, Volgabo'yi-Hazoriya va Bulg'orlar bilan, uchinchidan, Sharqiy Yevropaning keng slavyanlar olami bilan savdo aloqalarida bo'lganlar. Istaxriy X asrdayoq savdo aloqalarining, ayniqsa, Sharqiy Yevropa bilan bo'ladigan aloqalarining kengayganligi to'g'risida shunday degan: "Qo'shni turk qullari bilan bir qatorda, slavyan va xazar qullarining katta qismi, dasht tulkisi, sobol, tulki, qunduz mo'ynasining katta qismi ham ularning (xorazmliklarning) qo'liga tushadi".[3]

IX-X asrlarda Xorazmning Shimoliy tarmoq orqali olib borgan karvon savdosida Volga daryosining o'rta va yuqori oqimlarida joylashgan Xazarlar va Bulg'orlar bilan bo'lgan mol ayirboshlashi katta ahamiyat kasb etgan.

Ayniqsa, VIII asrda vujudga kelib Shimoliy Kavkaz, Volga va Kaspiy bo'yi hududlarini o'z ichiga olgan Xazar xoqonligi bilan savdo munosabatlari shu darajada rivojlangan ediki, bu hol hatto ikkala davlatning siyosiy hayotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu aloqalarni hatto VIII asrning 60-70 yillarida Xazar xoqonligida diniy niqob ostida kechgan yirik siyosiy jarayon ham to'xtata olmagan. Xorazm musulmonlashib bo'lganidan keyin ham, savdo munosabatlari davom etib, avvalgiga qaraganda yanada rivojlangan.

Xazar davlatining poytaxti Itil shahri shu davrda Sharq va G'arbdan kelgan savdo yo'llari tutashgan yerda joylashganligidan, o'sha davrda dunyoning yirik va boy shaharlaridan biriga aylangan edi. Ibn Havqalning ma'lumotiga ko'ra, uning uzunligi va kengligi 1-farsax (6-8km)ga teng bo'lgan.[4] Ikki qismdan iborat bo'lgan Itil shahri g'arbiy qismi Itil, Sharqiy qismi esa Xazaron deb atalib, aholisining ko'pchiligini xorazmliklar tashkil qilgan. Xazaron mashhur savdo shaharlaridan biri bo'lib, savdogarlar, hunarmandlar va boshqa tabaqa vakillarini o'ziga jamlagan.

Xorazmliklarning Xazar xoqonligidagi ta'siri shu darajada kuchli bo'lganki, arab tarixchisi Mas'udiyning yozishicha, xoqon qo'shinlarining asosini xorazmliklar ham tashkil qilgan. Ibn Havqalning ma'lumotiga ko'ra, xorazmliklar qo'shini 12 ming kishidan iborat bo'lgan. Arab tarixchisi, Ibn Havqalning ma'lumotlariga ko'ra, xorazmliklar Xazar xoqonligida hukumat ishlariga aralashish huquqiga ham ega bo'lib, o'z vaziriga ega bo'lish huquqiga ega bo'lganlarini yozgan.[5]

Ikkinchi tomondan, Xorazmda, Urganchda ham Xazar xoqonligidan ko'chib kelganlar – xazar, alan va slavyanlardan iborat aholi manzilgohlari mavjud edi. Bu manzilgohlar Beruniy davrida, hatto mo'g'ullar bosqiniga ham mavjud bo'lib, u haqida italyan sayyohi Plano Karpini ma'lumot beradi.[6]

Volgabo'yi va Sharqiy Yevropa bilan Xorazm savdosida bulg'orlar ham katta o'rin tutgan. Maqdisiyning Movarounnahrning turli viloyatlaridan chiqarilgan mollar ro'yxatida bulg'orlardan Xorazmga keltirilgan mollar to'liq ko'rsatib o'tilgan. "Xorazmdan – sobol, kulrang olmaxon, oqsichqon, dasht tulkisi, suvsar, tulki, qunduz, bo'yalgan quyon, echki, mum, kamon o'qi, oq terak po'stlog'i, uchlik qalpoqlar, baliq yelimi va baliq tishi chiqariladi; qunduz terisi, kanakunjut moyi, anbar, kimuxt (oshlangan ot terisi), asal, o'rmon yong'og'i, lochinlar, qilich, sovutlar, qayin (xalanj) daraxtining ildizi, slavyan qullari, qo'y va sigirlar – bularning hammasi bulg'orlardan keladi".[7] X asr oxirida bulg'orlardan keltirilgan narsalar turli-tumanligi bilan juda qiziqarlidir. Bu hol xorazmliklarning iqtisodiy jihatdan faolligining belgisi hisoblanadi.

Xorazm, xuddi Xazar xoqonligi bilan bo'lganligidek, Volgabo'ylaridagi shaharlar bilan ham faol aloqada bo'lgan.

Volga Bulg'oriyasida ham juda ko'pgina yirik savdo markazlari mavjud bo'lgan. Bular: davlat poytaxti – Bulg'or, Bilyar, Suvar, Oshel, Jukotin, Tubulgatau, Kermenchuk, Kazan va Kashan. Bu savdo markazlari ichida Volgabo'yi va Sharqiy Yevropaning Markaziy Osiyo bilan bo'lgan savdosida, ayniqsa, Bulg'orning ahamiyati juda katta bo'lgan. Yevropaning shimoli-sharqida u mo'yna, mum, asal kabi mollar, hamda qullar to'planadigan yirik markaz sanalgan. Bulg'or bozorlarida, Markaziy Osiyoning turli hududlaridan kelgan musulmon savdogarlari olib kelgan, katta miqdordagi kumush dirhamlar muomalada bo'lgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, IX-X asrlardan boshlab, Volgabo'yi va Sharqiy Yevropa bilan bo'lgan savdoda, tovar ayirboshlash, asosan, pul bilan amalga oshirilgan. X asr arab geografi Ibn Rustaning ma'lumotiga ko'ra, oq yumaloq dirhamlar ularga musulmon mamlakatlaridan, ularning tovarlariga almashtirish yo'li bilan keltiriladi.[8] Xullas, Xazar davlati va Bulg'oriyadan Xorazmga asosan, shu davrda butun Sharqda nihoyatda qadrlangan turli xil mo'ynalar, katta miqdorda terilar, teri oshlashda ishlatiladigan po'stloq, qoramol, asal va nihoyat, slavyan va turk qullari keltirilgan.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytish mumkinki, Xorazmlik savdogarlar Karvon yo'li bo'ylab, Sharqiy Yevropa va Kavkaz, xususan, Volgaboyi shaharlari savdo-iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallay olgan. Bu avvalo Shimoliy tarmoq faoliyatining yuksalishi uchun ham zamin yaratgan.

### **Iqtiboslar / References / Сноски**

1. Мамбетуллаев М.М. О торговых связях города Хорезма... Ургенч.,1991 - с.44.
2. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб.Т.Фан.,1964 - 233-бет.
3. Истахри. Книга путей и стран(Китаб масалик ал-мамалик). Восточная литература. 2003 - С.180.
4. История народов Узбекистана. Т.1. с.231.
5. Очерки истории Каракалпакской АССР. Т.1. с.91.
6. МИТТ. т.1. с.202.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»  
JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000